



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI

Xatamov Nurbek Ochildiyeovich

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ

Xatamov Nurbek Ochildiyeovich

ANALYSIS OF THE EFFECTIVE USE OF FOREIGN INVESTMENTS IN SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT

Khatamov Nurbek Ochildiyeovich

Received: June 11, 2026 Revised: June 16, 2026 Accepted: June 19, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: maqolada mamlakatimiz viloyatlarida xorijiy investitsiyalardan foydalanishning hozirgi holati tahlil etilgan. Shuningdek hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda ularning tarkibi o'rganilgan holda, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, kreditlar, asosiy kapital, hududlar, sanoat va energetika loyihalari.

Аннотация: В статье проанализировано текущее состояние использования иностранных инвестиций в регионах нашей страны. Также в разрезе регионов, на основе изучения иностранных инвестиций и кредитов, направленных в основной капитал, а также их структуры, разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности их использования.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, кредиты, основной капитал, регионы, промышленные и энергетические проекты.

Abstract: This article analyzes the current state of foreign investment in the regions of our country. Based on a regional analysis of foreign investment and loans directed toward fixed capital, as well as their structure, proposals and recommendations for improving their efficiency are developed.

Keywords: foreign investment, loans, fixed capital, regions, industrial and energy projects.

KIRISH

Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2019–2024 yillar davomida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lib, umumiy hajm 86,6 trln.so'mdan 333,8 trln.so'mga yetgan. Bu esa qariyb 4 barobar o'sishni anglatadi.

Mazkur o'sish mamlakatda investitsiya muhitining yaxshilangani, investorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar hamda xalqaro hamkorlikning kengaygani bilan bog'liq.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar taqsimoti tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati, Namangan, Buxoro va Navoiy viloyatlari eng ko'p xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan hududlar hisoblanadi. Xususan, Namangan viloyatida xorijiy investitsiyalar hajmi 2019 yilga nisbatan bir necha barobar oshgan



bo'lib, bu hududda sanoat va ishlab chiqarish loyihalarining faollashgani bilan izohlanadi.

Toshkent shahri xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha yetakchi bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, uning ulushi nisbatan pasaygan. Bu esa investitsiyalar hududlar bo'yicha yanada muvozanatli taqsimlana boshlaganini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning asosiy qismini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kreditlar tashkil etadi. Jumladan, umumiy 333,8 trln.so'mlik investitsiyaning 150,5 trln.so'mi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ishtirok etishga qiziqishi yuqori ekanligini bildiradi.

Shu bilan birga, kafolatlanmagan xorijiy kreditlar ulushining yuqoriligi investorlarning risklarga tayyorligini va moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchini aks ettiradi. Ayrim hududlarda, xususan, Namangan va Toshkent viloyatlarida boshqa turdagi investitsiyalar ulushi yuqori bo'lib, bu investitsiya manbalari diversifikatsiya qilinganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Xorijiy investitsiya” va unga aloqador tushunchalar ko'pchilik xorij va o'zbek iqtisodchi olimlari tomonidan ilmiy asoslanib, iqtisodiy termin sifatida ishlatilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 3-moddasiga asosan “chet el investitsiyalari – chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar”[1] deb ta'riflangan.

Mahalliy olimlardan A.Sh.Bekmurodov, Y.K.Karriyeva va boshqalar fikricha, “xorijiy investitsiyalar bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir”[2]. Bu ta'rifga ko'ra, xorijiy investitsiyalar daromad olish maqsadida turli ishlab chiqarish va xizmatlarga kiritgan chet el sarmoyadorlarni har qanday moddiy, moliyaviy hamda nomoddiy boyliklarini tushunish mumkin.

Bu borada, N.G'.Karimov va R.X.Xojimatovlar, “Chet el investitsiyasi deb chet el jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalarga aytilib, xalqaro tashkilotlar va chet el davlatlari tomonidan amalga oshiradi[3]” - degan fikrni berishgan. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, N.G.Muminovlar xorijiy investitsiyalarni “kapitalning bir qismini milliy aylanmadan ajratib olish va uni tegishli shakllarda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotiga o'tkazish jarayoni[4]” - deb ta'riflashadi.

Investitsiya tushunchasiga Z.T.Rahimov “foydalanish maqsadida mamlakat hududi va uning

tashqarisidagi iqtisodiy sohalar, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqalarga uzoq muddatga kapital kiritishdir[5]” - deb ta'rif bergan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mutaxassislaridan I.K.Fedotova esa, “xorijiy investitsiyalar – bular chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga foyda olish maqsadida investitsiya qilingan barcha turdagi mulkiy va intellektual qiymatliklardir[6]” - deb ta'rif bergan. P.V.Maslennikov, A.A.Zadorojniy, “xorijiy investitsiyalar – bu xorijiy fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatlarning kapital qo'yilmalari[7]” - deb ta'kidlaydilar.

V.V.Sarev talqinida, xorijiy investitsiyalar “moliyaviy mablag'lar yoki qo'shma korxonalar ustav kapitalida boshqa shaklida ishtirok etish, shuningdek, turli mulkchilik shaklidagi xalqaro tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalari (pul shaklida) ko'rinishidagi xorijiy manbalar[8]” hisoblanadi. V.A.Ivanov, T.I.Golovastova, A.M.Dibovlarning ta'kidlashicha, “investor-davlatlar tomonidan xorijdagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga mulkiy va intellektual boyliklar ko'rinishidagi jalb qiladigan investitsiyalari xorijiy investitsiyalar deb ataladi[9]”.

Ayrim iqtisodchi olimlar “Xorijiy investitsiyalar-bu chet ellik investorlarning daromad olish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga kapital qo'yishi[10]”, - deb ta'rif berishadi. Shuningdek, “xorijiy investitsiyalar – tashkilotlar, fuqarolar, boshqa davlat firmalari va, xususan, umuman, xorijiy davlatlar mablag'lari[11]” - degan ta'riflarni ham uchratish mumkin.

Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta'rifi F.Xeniusning 1947-yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: “Xorijiy investitsiyalar-bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport kilingan investitsiyalar[12]”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, deskriptiv tahlil, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish darajasi, avvalo, ularning qaysi sohalarga yo'naltirilganiga bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat, energetika va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar eng yuqori iqtisodiy samarani bermoqda. Ayniqsa, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalar valyuta tushumlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligi past darajada qolmoqda. Bu asosan infratuzilma yetishmovchiligi, malakali kadrlar taqchilligi va logistika muammolari bilan bog'liq. Shuning uchun kelgusida investitsiya siyosatini takomillashtirishda ushbu omillarga alohida e'tibor qaratish zarur(1-jadval).


Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar²⁴

mlrd. so'm.

Hududlarning nomi	yillar					
	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Respublika bo'yicha jami	86 653	112 450	148 320	45 215	187 900	333 796
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 210	4 180	5 670	6 890	9 450	14 363
Andijon viloyati	4 560	6 120	8 340	10 120	14 780	21 245
Buxoro viloyati	8 257	10 890	14 560	18 230	26 780	40 402
Jizzax viloyati	3 450	4 670	6 120	7 890	11 450	17 569
Kashqadaryo viloyati	5 780	7 340	9 890	12 450	17 230	23 908
Navoiy viloyati	6 120	8 450	11 230	14 670	19 450	27 595
Namangan viloyati	8 340	11 230	15 670	19 450	28 120	43 959
Samarqand viloyati	5 670	7 120	9 450	11 780	13 450	15 065
Surxondaryo viloyati	3 120	4 560	6 120	7 890	8 670	10 088
Sirdaryo viloyati	2 450	3 120	4 340	5 670	6 780	7 913
Toshkent viloyati	10 890	14 560	19 230	24 120	35 670	50 029
Farg'ona viloyati	4 780	6 340	8 450	10 230	11 890	12 710
Xorazm viloyati	2 890	3 780	5 120	6 450	7 340	8 785
Toshkent shahri	21 620	28 450	37 890	45 120	52 340	40 165

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2019–2024 yillarda keskin o'sish ko'rsatgan: respublika bo'yicha jami 3,85 barobar ko'paygan. Eng yuqori o'sish Navoiy, Namangan, Buxoro va Toshkent viloyatlarida kuzatilgan.

Bu hududlarda sanoat va energetika loyihalari faolligi yuqori bo'lgani bilan izohlanadi. Toshkent shahri mutlaq hajmi bo'yicha yetakchi bo'lib qolgan bo'lsa-da, uning ulushi 2024 yilga kelib biroz pasaygan (mintaqaviy muvozanat yaxshilanganligidan dalolat beradi).



1-rasm. Hududlarga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalarning tarkibi (jamiga nisbatan foizda)²⁵

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlari asosida tahlil investitsiyalarning hududiy tarkibida sezilarli ijobiy qilar ekanmiz, 2020-2025 yillar davrida xorijiy o'zgarishlar kuzatildi. 2025 yilda Toshkent shahri ulushi

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Stat.uz web-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Stat.uz web-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



17,1 % ni tashkil etib, 2019 yildagi 21–25 % dan pasaygan bo'lsa-da, mutlaq hajmi bo'yicha yetakchiligini saqlab qoldi. Namangan (14,1 %), Toshkent viloyati (12,3 %) va Navoiy (8,4 %) viloyatlarining ulushi keskin oshgani mintaqaviy

muvozanatni yaxshilashga qaratilgan davlat siyosati natijasidir. O'lis hududlar (Surxondaryo 2,5 %, Xorazm 2,3 %) ulushi past bo'lib qolmoqda, ammo 2020-2025 yillarda ularning o'sish sur'ati ham barqaror bo'lgan.

2-jadval

Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar, mlrd., so'm.²⁶

Hududlar	Jami	Yillar		
		To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z. R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	boshqalar
O'zbekiston Respublikasi	333 796	150 512	23 341	159 943
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 363	1 809	622	11 932
Andijon viloyati	21 245	10 826	540	9 879
Buxoro viloyati	40 402	21 649	1 531	17 222
Jizzax viloyati	17 569	10 357	289	6 923
Qashqadaryo viloyati	23 908	11 514	2 193	10 201
Navoiy viloyati	27 595	12 181	3 628	11 786
Namangan viloyati	43 959	11 753	884	31 322
Samarqand viloyati	15 065	5 930	677	8 458
Surxondaryo viloyati	10 088	12 241	1 811	-3 964* (texnik sozlash)
Sirdaryo viloyati	7 913	5 299	83	2 531
Toshkent viloyati	50 029	18 251	1 226	30 552
Farg'ona viloyati	12 710	8 216	97	4 397
Xorazm viloyati	8 785	946	377	7 462
Toshkent shahri	40 165	18 793	9 393	11 979

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibi manbalar bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi va bu holat har bir hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, investitsion jozibadorligi hamda moliyalashtirish mexanizmlariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Avvalo, respublika bo'yicha jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 333,8 trln.so'mni tashkil etib, uning 150,5 trln.so'mi (taxminan 45 foizi) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa iqtisodiyotga jalb etilayotgan mablag'larning katta qismi investorlarning bevosita ishtiroki orqali amalga oshirilayotganini bildiradi. Shu bilan birga, 159,9 trln.so'mlik "boshqa" investitsiyalar ulushining yuqoriligi investitsiya manbalarining diversifikatsiyalashganligini ko'rsatadi. Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar esa nisbatan kichik ulushni (23,3 trln.so'm) egallab, asosan yirik infratuzilmaviy va strategik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent viloyati (50,0 trln.so'm), Namangan viloyati (44,0 trln.so'm), Buxoro viloyati (40,4 trln.so'm) va Toshkent shahri (40,2 trln.so'm) xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Bu hududlarda investitsiyalar yuqori bo'lishi, avvalo, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanganligi, logistika infratuzilmasi mavjudligi hamda investorlarga yaratilgan qulay shart-sharoitlar bilan izohlanadi.

Toshkent shahri alohida e'tiborga loyiq bo'lib, bu yerda davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hajmi (9,4 trln.so'm) boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori. Bu holat poytaxtda amalga oshirilayotgan yirik infratuzilma, transport va urbanizatsiya loyihalari ko'pligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, Toshkent viloyatida "boshqa" turdagi investitsiyalar ulushi (30,6 trln.so'm) yuqoriligi investitsiya manbalarining kengayganligini va xususiy sektor faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Namangan viloyatida jami investitsiyalar tarkibida "boshqa" investitsiyalar (31,3 trln.so'm) ustunlik qilayotgani ushbu hududda kreditlar, qo'shma

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Stat.uz web-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



loiyahalar va boshqa moliyalashtirish shakllari keng qo'llanilayotganini anglatadi. Bu esa hududda kichik sanoat zonalari va ishlab chiqarish loiyaholari jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi yuqori bo'lib, bu hududlarda tabiiy resurslar, xususan, neft-gaz, kon-metallurgiya va kimyo sanoati loiyaholari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, Buxoro viloyatida jami 40,4 trln.so'mlik investitsiyaning 21,6 trln.so'mi aynan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi.

Jizzax, Andijon va Farg'ona viloyatlarida ham to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushi nisbatan yuqori bo'lib, bu hududlarda sanoat ishlab chiqarishining kengayib borayotgani va xorijiy investorlar ishtirokidagi loiyahalar soni ortayotganini ko'rsatadi.

Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida investitsiyalar hajmi nisbatan kichik bo'lsa-da, ularning tarkibida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar muhim o'rin egallaydi. Bu esa ushbu hududlarda ham investitsiya muhiti bosqichma-bosqich yaxshilanayotganini bildiradi.

Surxondaryo viloyatida kuzatilgan manfiy ko'rsatkich ("3 964") texnik qayta hisob-kitoblar bilan izohlanib, bu real investitsiya kamayishini emas, balki statistik tuzatishlar natijasini anglatadi. Shu bois, ushbu hudud bo'yicha tahlilda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar tarkibi sezilarli darajada differensiyalashgan. Ayrim hududlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ustun bo'lsa, boshqalarida kreditlar yoki boshqa moliyalashtirish manbalari yetakchilik qilmoqda. Bu esa hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, resurs salohiyati va investitsiya siyosatining o'ziga xos jihatlari bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarning hududlar bo'yicha nisbatan notekis taqsimlanishi investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, past investitsiya jalb qilayotgan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish hamda investorlar uchun qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar tarkibi va ularning hududlar kesimida taqsimlanishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim indikatorlaridan biri bo'lib, ularni samarali boshqarish va yo'naltirish kelgusida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Республикасининг "Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида"ги Қонуни, 2019 йил 9 декабрь.
2. Бекмуродов А.Ш., Кариева Я.К., Нематов И.У., Набиев Д.Х., Каттаев Н.Т. Хорижий

инвестициялар. Ўқув қўлланма.-Т.: Иқтисодиёт, 2010.-166 б.

3. Н.Ф. Каримов ва Р.Х. Хожиматов. Инвестицияни ташкил этиш ва молиялаштириш: Дарслик.-Т.: ТДИУ, 2011.-801 б.

4. А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажикабиев, Н.Г.Мунинов. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма.- Т.: "Молия", 2010.- 328 б.

5. Рахимов З.Т. Худудлар иқтисодиётини ривожлантиришда хорижий инвестициялардан самарали фойдаланишнинг эконометрик моделлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати – Урганч, 2023.-56 б.

6. Федотова И.К. Иностранные инвестиции в Российской Федерации и их роль в экономике региона. // Среднерусский вестник общественных наук, №3, 2011 г., стр.157-16.

7. Масленников П.В., Задорожный А.А. Экономическая оценка инвестиций: учебное пособие: Кемеровский технологический институт пищевой промышленности. - Кемерово, 2005. - 108 с.

8. Царев В.В. Оценка экономической эффективности инвестиций.-СПб.: Питер .2004.- 464 с.

9. Иванов В.А., Головастова Т.И., Дыбов А.М. Иностранные инвестиции: Курс лекций.-Ижевск: Институт экономики и управления ГОУ ВПО "УдГУ", 2009.-159 с.

10. Л.И. Юзвович, С.А. Дегтярев и др. Инвестиции: учебник для вузов- Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016.-543 с.

11. Куприн А.А. и др. Экономика: учебное пособие / А.В. Буга, И.И. Грозаву, Т.В. Данилова, Л.В. Дорофеева, В.С.Кудряшов, А.А. Куприн, А.Д.Шматко; под ред. А.А.Куприна; Сосновоборский филиал РАНХиГС.-СПб.: Астерион, 2018.-456 с.

12. Dictionary of Foreign Trade. by F.Henus Sec/ Ed. N4.,1947, P.387.

13. Stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining web-sayti

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xatamov Nurbek Ochilidievich O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi dotsenti / Xatamov Nurbek Ochilidievich Доцент Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан / Khatamov Nurbek Ochilidievich Associate Professor of the Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

E-mail: nurbekurdu@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4142-1752>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz